



THE HISTORY OF THE ACTIVITIES OF THE INTERNAL AFFAIRS BODIES OF UZBEKISTAN IN THE 1970S AND ON THE EVE OF INDEPENDENCE

Bakhodir Tojiyev

Researcher

Karshi State Technical University

Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Soviet Uzbekistan, internal affairs bodies, police, Communist Party, public order, fight against crime, rule of law, personnel policy, public safety.

Received: 22.04.25

Accepted: 24.04.25

Published: 26.04.25

Abstract: This scientific article analyzes the history of the activities of the internal affairs bodies in the 1970s and the period before Uzbekistan gained independence. The article studies the role of the internal affairs bodies in maintaining order and security in society under the leadership of the Communist Party of the Soviet Union, the processes of their organization and development. It also examines the effectiveness of the police in fulfilling its main tasks during this period, such as ensuring public order, combating crime, and strengthening the rule of law. The article analyzes the structural changes, personnel policy, and public relations of the internal affairs bodies of Soviet Uzbekistan.

XX ASRNING 70-YILLARI VA MUSTAQILLIK ARAFASIDA O‘ZBEKISTON ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYATI TARIXI

Bahodir Tojiyev

tadqiqotchi

Qarshi davlat texnika universiteti

Qarshi, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Sovet O‘zbekistoni, ichki ishlar organlari, militsiya, Kommunistik partiya, jamiyat tartibi, jinoyatchilikka qarshi kurash, qonun ustuvorligi, kadrlar siyosati, jamoat xavfsizligi.

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqola, XX asrning 70-yillari va O‘zbekistonning mustaqillikka erishish arafasidagi davrlarda ichki ishlar organlarining faoliyati tarixini tahlil qiladi. Maqola, Sovet Ittifoqining Kommunistik partiya rahbarligi ostida, ichki ishlar organlarining jamiyatdagi tartib-tuzum va xavfsizlikni saqlashdagi rolini, ularning

tashkil etilishi va rivojlanish jarayonlarini o'rganadi. Shuningdek, bu davrda militsiyaning jamoat tartibini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va qonun ustuvorligini mustahkamlash kabi asosiy vazifalarini bajarishdagi samaradorligi ko'rib chiqiladi. Maqolada, Sovet O'zbekistoni ichki ishlar organlarining strukturaviy o'zgarishlari, kadrlar siyosati va jamoat bilan o'zaro munosabatlari tahlil qilinadi.

ИСТОРИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ УЗБЕКИСТАНА В 1970-Е ГОДЫ И НАКАНУНЕ НЕЗАВИСИМОСТИ

Баходир Тоджиев

исследователь

Кариинский государственный технический университет

Кариин, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Советский Узбекистан, органы внутренних дел, милиция, Коммунистическая партия, общественный порядок, борьба с преступностью, верховенство закона, кадровая политика, общественная безопасность.

Аннотация: В данной научной статье анализируется история деятельности органов внутренних дел в 70-е годы XX века и в период, предшествовавший обретению Узбекистаном независимости. В статье исследуется роль органов внутренних дел под руководством Коммунистической партии Советского Союза в поддержании порядка и безопасности в обществе, процессы их организации и развития. Также в этот период будет рассмотрена эффективность милиции в выполнении ее основных задач, таких как обеспечение общественного порядка, борьба с преступностью и укрепление верховенства закона. В статье анализируются структурные изменения органов внутренних дел Советского Узбекистана, кадровая политика и взаимодействие с общественностью.

Kirish: KPSS XXIV syezdi (1971 yil 30 mart - 9 aprel) o'z ishlarini amalga oshirish davomida mamlakatda huquq-tartibotni va sotsialistik qonunchilikni mustahkamlash masalalariga katta ahamiyat qaratdi. Syezd ishlarida, jamiyatdagi tartibbuzarlik holatlariga, xususan mehnat intizomini buzish, ta'magirlik, o'g'irlik, tekinxo'rlik, poraxo'rlik va ichkilikbozlik kabi salbiy hodisalarga qarshi kurashishga alohida e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari, syezd qatnashchilari jamiyatdagi jamoatchilik fikrini ushbu muammolarga tobora ko'proq jalb etishning zarurligini ta'kidladilar va shuningdek, fuqarolarning ongi va xatti-harakatlarida qolgan o'tmish sarqitlarini bartaraf etish har bir ongli kuchning doimiy diqqat-e'tiborida bo'lishi kerakligini urg'uladilar.

KPSS XXIV syezdi, tartibbuzarlikka qarshi kurashishning formalari va metodlarini yanada takomillashtirish vazifasini belgilab, jazo choralari qo'llash bilan birga, jinoyatlarning oldini olishga ko'proq e'tiborni qaratish lozimligini qayd etdi. Ushbu yondashuv, jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlash va fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan bo'lib, uzoq muddatli strategik maqsadlarni ko'zda tutadi[1].

Asosiy qism: SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1973 yil 19 iyulda tasdiqlangan "Sovet militsiyasining jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi asosiy vazifalari hamda huquqlari to'g'risida"gi farmoni, Kommunistik partiya va Sovet davlatining militsiya faoliyatini tashkil etish va uni huquqiy boshqarishni takomillashtirish borasidagi chuqur g'amxo'rlikning aniq ifodasi sifatida qabul qilindi. Mazkur farmon, jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida militsiyaning vazifalarini va huquqlarini belgilab beruvchi muhim hujjat hisoblanadi.

Shu bilan birga, SSSR Ministrlar Sovetining 1973 yil 8 iyunda qabul qilingan "Sovet militsiyasi faoliyatini huquqiy jihatdan boshqarishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori, Sovet militsiyasi to'g'risidagi yangi Nizomni tasdiqlash orqali, militsiya faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan edi. Ushbu hujjatlar militsiya tizimining samaradorligini oshirish, shuningdek, jinoyatchilikka qarshi kurashda huquq-tartibot kuchlarining vakolatlarini kengaytirishga yo'naltirilgan bo'lib, Sovet davlatining ichki xavfsizlik siyosatining muhim qismlaridan birini tashkil etadi[2].

Bu farmon va qarorlar, Sovet davlatining militsiyaga oid siyosatini shakllantirishdagi mantiqiy qadamlar sifatida, jamiyatdagi huquq-tartibotni ta'minlashda muhim rol o'ynagan va militsiya organlarining faoliyatini yanada qonuniy asoslarga tayanadigan tarzda yo'lga qo'yishga xizmat qilgan.

KPSS XXV syezdi (1976 yil 24 fevral - 5 mart) SSSR ichida militsiyaning rivojlanishi va takomillashuvi uchun yangi strategik bosqichni belgilab berdi. Syezd, sovet militsiyasining vazifalari va huquqlarini aniq va puxta ko'rsatib, jamiyatda jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida muhim qadam tashlashni ta'minladi. Bu jarayon, KPSS ning nazorati ostida sodir bo'lib, militsiyaning samaradorligini oshirishga qaratilgan edi[3].

Syezd davomida, sotsialistik axloq normalaridan har qanday chekinishlar, jumladan, ta'magirlik, xususiy mulkchilik tendensiyalari, byurokratizm, odamlarga beparvolik, bezorilik va boshqa tartibbuzarlik hollariga tezda barham berish vazifasi muhokama qilindi. Bunday salbiy ko'rinishlar, tuzumimizning mohiyatiga zid deb topilib, ularni bartaraf etish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanish taklif etildi: mehnat kollektivining fikridan, matbuotning tanqidiy so'zidan, ishontirish metodlaridan va qonun kuchidan foydalanishga qadar.

KPSS militsiya va umuman ichki ishlar organlarining takomillashtirilgan faoliyatini nafaqat qo'llab-quvvatladi, balki ularning forma va metodlarini Sovet davlatining umumxalq xarakteriga to'la-to'kis muvofiq kelishi uchun qat'iy talablar qo'ydi. Shuningdek, militsiyaning shtatlari munosib kadrlar bilan to'ldirilishi va ichki ishlar organlarining malakasini oshirish haqida tinmay g'amxo'rlik qilish, sovet jamiyatining huquq-tartibotni ta'minlashdagi muhim omil sifatida qaraldi. Bu yondashuvlar orqali KPSS militsiya va ichki ishlar organlarini yanada professional va samarali qilib rivojlantirishni maqsad qilgan edi.

1973 yil 1 iyuldan boshlab kuchga kirgan Sovet militsiyasi to'g'risidagi yangi Nizomda militsiyaning shaxsiy tarkibini to'ldirishning normativ asoslari mustahkamlandi. Ushbu normativ hujjatlar, militsiya kadrlarining saralash va tayyorlash jarayonlarini aniq va qat'iy me'yorlar asosida tartibga solishga qaratilgan edi, bu esa sovet huquq-tartibot organlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi[4].

Yuqori malakali militsiya kadrlarini tayyorlash tizimida amalga oshirilgan jiddiy o'zgarishlar, ushbu soha mutaxassislarining bilim va ko'nikmalarini yanada takomillashtirishni ko'zda tutgan. SSSR Ministrlar Sovetining qarori asosida, Toshkent shahrida mavjud bo'lgan Ichki ishlar ministrligining sirtqi ta'lim fakulteti negizida yangi ta'lim muassasasi — "SSSR Ichki ishlar ministrligining Toshkent oliy maktabi" tashkil etildi. Mazkur ta'lim dargohi kunduzgi va sirtqi bo'limlardan iborat bo'lib, u militsiya kadrlarini har tomonlama yuqori malakali mutaxassislar sifatida tayyorlashga mo'ljallangan edi.

Bu o'zgarishlar, Sovet militsiyasining institutsional rivojlanishida muhim qadam bo'lib, ichki ishlar organlarining moddiy-texnik va kadrlar salohiyatini kengaytirish, shuningdek, ularning professional darajasini oshirishga qaratilgan strategik yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

Rivojlangan sotsialistik taraqqiyot davrining o'ziga xos shart-sharoitlari doirasida, respublika militsiyasining vazifalari avvalgidan ham mas'uliyatli va murakkablashgan. Ushbu vazifalar orasida jamoat tartibini saqlash, sotsialistik mulkni mustahkam himoya qilish, tartibbuzarliklarga qarshi sobitqadamlik bilan kurashish, shuningdek, sovet fuqarolarining huquqlari va erkinliklarini, jamiyat hamda davlat manfaatlarini faol himoya qilish kabi mas'uliyatlar muhim o'rin tutadi. Militsiyaning asosiy maqsadi va muqaddas burchi xalqqa sidqidildan va sadoqat bilan xizmat qilishdir.

O'zbekiston Kommunistik Partiyasi Markaziy Komiteti, militsiya xodimlaridan yuqori bolshevistik prinsipiiallikni, qonunlar hamda fuqarolarning huquqlarini buzuvchilarga nisbatan keskin murosasizlikni, chuqur huquqiy madaniyatni, shuningdek, shaxsiy tarkibning har tomonlama professional tayyorgarligini ta'minlashni talab qiladi. Bu talablar, ichki ishlar organlarining faoliyatini yangi siyosiy va huquqiy me'yorlar asosida baholash zaruratidan kelib

chiqqan holda, SSSRning yangi Konstitutsiyasi va O'zbekiston SSRning yangi Konstitutsiyasining siyosiy va huquqiy mezonlari nuqtai nazaridan yondashiladi.

Partiya XXV va XXVI syezdlarida kadrlar bilan ishlashning samaradorligi va sifatini oshirishni strategik vazifalardan biri sifatida belgilab qo'ygan edi. Rahbar partiya organlarining kundalik yordami va e'tibori natijasida, respublika militsiyasi va boshqa xizmatlarning safi har yili siyosiy madaniyatga ega, bilimdon va ishchan xodimlar bilan to'ldirilmoqda, bu esa ularning faoliyatini yanada samarali va natijali qilmoqda.

KPSS Markaziy Komitetining 1979 yil aprelda qabul qilgan "Ideologik, siyosiy-tarbiyaviy ishlarni yanada yaxshilash to'g'risida"gi qarori ichki ishlar organlari va bo'linmalari faoliyatini yaxshilash, kadrlar bilan ishlashni takomillashtirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu qarorning izchil amalga oshirilishi militsiya siyosiy organlari, partiya va komsomol komitetlarining jangovarligini va obro'-e'tiborini oshirishga yordam berdi. Qaror, siyosiy tarbiyaning militsiya xodimlarining konkret faoliyati orqali amalga oshirilishini, ya'ni tartib-tuzumni muhofaza qilish jarayonida ularning siyosiy va ideologik saviyasini oshirishni ta'kidlaydi[5].

1982 yil noyabr oyida KPSS Markaziy Komitetining Plenumida ichki ishlar organlari va bo'linmalari xodimlariga intizomni buzishning har qanday ko'rinishiga qarshi keskin kurash olib borish, faoliyatsizlik va mas'uliyatsizlikka qarshi kurashish lozimligi ta'kidlandi. Bu talablar xodimlarning moddiy rag'batlantirilishi, xizmat mavqeiga va ma'naviy obro'siga ta'sir qiluvchi omillar sifatida belgilandi.

Natija va tahlil: 1983 yil fevralida O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetida o'tkazilgan huquq-tartibotni muhofaza qilish organlari xodimlari kengashi KPSS XXVI syezdi qarorlari va partiya Markaziy Komiteti 1982 yil noyabr Plenumi talablariga muvofiq, mehnat intizomini, sotsialistik qonunchilikni va huquq tartibotni yanada mustahkamlash masalalariga katta e'tibor qaratdi. Bu yig'ilish ichki ishlar organlarining faoliyatini yanada samarali va maqsadga muvofiq yo'lga qo'yishga qaratilgan strategiyalarni muhokama qilish uchun muhim platforma vazifasini o'tadi[6].

Yuqoridagi strategik talablarni hisobga olib, respublikamizning shahar va qishloqlarida hamda transport magistralarida patrul-post xizmatlarining takomillashtirilishi ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu jarayonda bevosita jinoyatchilikka qarshi kurashayotgan militsiya xodimlari va temir yo'l transportida xizmat qilayotgan ichki ishlar organlarining faoliyati sezilarli darajada yaxshilandi. Ushbu sohalarda fan-texnika yangiliklarining faol joriy etilishi, jinoyatlarning oldini olishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda, bu esa militsiya organlarining fuqarolar arizalariga tezkor va samarali javob qaytarish qobiliyatini oshirmoqda.

KPSS Markaziy Komitetining 1983 yil iyun Plenumida, yangi kishini tarbiyalashning muhimligi ta'kidlangan bo'lib, bu jarayon ichkilikbozlik, bezorilik, tekinxo'rlik, chayqovchilik,

sotsialistik mulkni talon-toraj qilish, poraxo'rlik va ta'magirlikka qarshi kurashish bilan bevosita bog'liq ekani qayd etildi. Partiya Plenumi ushbu yomon illatlarga qarshi kurashishda, tarbiyaviy ishlarning, jamiyatdagi axloqiy me'yorlarni mustahkamlashning va fuqarolarning huquqiy ongini oshirishning hal qiluvchi ahamiyatini alohida urg'uladi. Bunday yondashuv, respublikada huquq-tartibotni mustahkamlaydi va umumiy xavfsizlikni ta'minlashda muhim qadam hisoblanadi[7].

Ichki ishlar organlari xodimlari orasida kasbga bo'lgan muhabbat va sadoqat yuqori darajada namoyon bo'ladi. Ushbu sohada faoliyat yuritayotgan bir qator xodimlar, jumladan Kosonsoy rayon ijroiya komiteti ichki ishlar bo'limining uchastka inspektori, militsiya katta leytenanti B.Pulatov; Samarqand shahar Bog'ishamol rayon ijroiya komiteti ichki ishlar bo'limi operativ-qidiruv bo'linmasi inspektori, militsiya katta leytenanti A. Davronov; hamda Toshkent oblast ichki ishlar boshqarmasi tergovchisi, militsiya katta leytenanti M. Usmonov kabi shaxslar o'z xizmat vazifalarini vijdonan bajarish bilan ajralib turadilar.

Bugungi kunda, ichki ishlar organlari xodimlarining ixtiyorida zamonaviy transport vositalari va aloqa uskunalari mavjud bo'lib, bu vositalar ularning ish samaradorligini oshirishda katta yordam beradi. Shuningdek, ular kriminalistika sohasining eng so'nggi ilmiy yutuqlaridan foydalanish imkoniyatiga ega, bu esa jinoyatchilikka qarshi kurashda ularning qo'l keladi. Ushbu resurslar nafaqat jinoyatlarni tezkor aniqlash va tergov qilishda, balki jamoat xavfsizligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston militsiyasi hozirgi kunda jinoyatlarning to'la-to'kis ochilishini ta'minlash va har bir qilingan jinoyatning jazosiz qolmasligi prinsipini amalga oshirish kabi asosiy vazifalarni o'z zimmasiga olgan. Bu vazifalar, jamiyatda qonun ustuvorligini mustahkamlash va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. 1983 yil iyul oyida o'tkazilgan O'zbekiston ichki ishlar organlarining respublika kengashida, KPSS Markaziy Komitetining 1982 yil noyabr va 1983 yil iyun Plenumlarida qabul qilingan qarorlar muhokama qilingan bo'lib, salbiy hodisalarga qarshi kurashni kuchaytirish va huquq tartibotga rioya qilinishini nazorat qilishga alohida e'tibor qaratilgan[8].

SSSR Ichki ishlar ministrligi sistemasida partiya-siyosiy, g'oyaviy-tarbiyaviy va madaniy-ma'rifiy ishlar tashkil etilgan. Bu ishlar shaxsiy sostavning vazifalarni mas'uliyat bilan bajarishini ta'minlash maqsadida amalga oshirilmoqda. 1983 yil 10 avgustda V.V. Fedorchukning "Pravda" gazetasida chop etilgan maqolasida ta'kidlanishicha, bu ichki ishlar organlaridagi partiya tashkilotlarining jangovarligini oshirish va partiya-siyosiy hamda tarbiyaviy ishlarni kuchaytirishga qaratilgan[9]. Bu ichki ishlar organlaridagi partiya tashkilotlari jangovarligini oshirishni partiyaviy-siyosiy, tarbiyaviy ishlarni yanada kuchaytirishni taqozo etadi. 1983 yil noyabr oyida KPSS Markaziy Komiteti Siyosiy byurosi SSSR ichki ishlar ministrligi sistemasidagi siyosiy organlar to'g'risidagi Nizomni ko'rib chiqib, uni tasdiqladi[10].

Respublika ichki ishlar organlari xodimlari, partiya va sovet tashkilotlari rahbarligida, KPSS XXVI syezdi va O'zbekiston Kompartiyasining XX syezdi qo'ygan vazifalarni astoydil bajarishga intilmoqdalar. Ular mustahkam huquq-tartibotni ta'minlash uchun zarur barcha choralarni ko'rmoqdalar, bu esa respublikada barqarorlik va xavfsizlikni oshirishga xizmat qiladi.

Sovet O'zbekistoni militsiyasining tarixiy yo'li, Kommunistik partiya va uning dastlabki yo'lboshchisi V.I. Lenin tomonidan professional asosda shtatli apparat tuzish to'g'risidagi qarorlarning to'g'riligini tasdiqlaydigan yorqin misol sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Bu prinsip Sovet militsiyasiga o'zining asosiy vazifasi — jamoat tartibini ta'minlashni oltmish yildan ko'proq vaqt davomida muvaffaqiyatli bajarish imkonini berdi. Sovet militsiyasi Kommunistik partiya rahbarligida tuzilgan, shu asosda ishlab kelmoqda va hozirgi kunda ham faoliyat yuritmoqda[11].

Xulosa. O'zbekiston Sovet militsiyasi tarixi davomida, Kommunistik partiya bo'lgan sodiqlik va uning rahbarlik rolini doimo his qilib kelgan. Partiya rahbarligi, militsiyaning kuch-qudratining asosiy manbai bo'lib, uning faoliyatining mustahkam negizini tashkil etadi. Ushbu boshqaruv uslubi, militsiyaning jamiyatdagi tartib-tuzumni saqlashdagi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi va ichki ishlar organlarining siyosiy va ijtimoiy vazifalarni bajarishdagi rolini mustahkamlashga yordam beradi. Bu holat, Sovet davlatining ichki siyosatida militsiyaning muhim o'rni va rolini tasdiqlaydi.

Sovet davrida tashkil topgan militsiya tuzilmalari, o'sha davrning siyosiy va ijtimoiy konteksti doirasida, jinoyatchilikka qarshi samarali kurash olib borgan va qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan ishlarni amalga oshirgan. Partiya rahbarligi ostida ichki ishlar organlarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, kadrlar tayyorlash tizimi takomillashtirilgan. Mustaqillikka erishish arafasida esa, bu tuzilmalar o'zgaruvchan siyosiy sharoitlarga moslashishga majbur bo'lgan. Ushbu maqola, O'zbekiston ichki ishlar organlarining tarixiy yo'lini chuqurroq tushunishda yordam beradi va kelajakda ushbu sohaning yanada rivojlanishi uchun ilmiy asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston tarixi. –T.: “Akademiya”. 2010.
2. Boboyev M. Soatov A. Surxondaryo militsiyasi. - Samarqand; Sug'diyona, 1998.
3. Борисов, А. В. Полиция и милиция России: страницы истории. — М., 1995.
4. Истории милиции Советской Украины. Киев, 1965.
5. История органов внутренних дел России: учеб. пособие. – Пенза: Изд-во ПГУ, 2018. – 216 с.
6. История советской милиции. – М., 1977. – Т. 2.
7. Полиция и милиция России: страницы истории. – М., 1995.
8. Xalq xizmatida 75 yil. Mas'ul muharrir G.Raximov. –T.: “O'zbekiston”, 1992.
9. V.V.Fedorchuk. “Pravda”, 1983 yil 10 avgust
10. “Sovet O'zbekistoni” 1983 yil 19 noyabr.
11. Jalilov T., Xoliqov R. Sovet O'zbekiston militsiyasi. -Toshkent: “O'zbekiston”, 1983.